

“TASDIQLAYMAN”

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ
bosh menejeri - bosh muhandisi

X.N.Xasilov

2017 yil



**Mehnat muhofazasi, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va sanoat xavfsizligi
bo'yicha
O'QITISH DASTURI**

Mehnat muhofazasi

Mehnat muhofazasi tushunchasi?

Mehnat muhofazasi – mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'ini, ish qobiliyatini saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, davolash profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi.

Yuqori tezlikdagi poezdlarni o'tkazib yuborishda ish boshlashdan oldin va ish jarayonidagi mehnat muhofazasi talablari?

Yuqori tezlikdagi va tezyurar liniyada ishni boshlashdan oldin ishlarni tashkillashtirishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarish bo'linmasi rahbari ish boshqaruvchilariga rejalashtirilayotgan uchastkada poezdlar harakatining grafigidan aniqlashtirilgan ko'chirmasini berishi shart. Ish boshqaruvchilariga beriladigan ko'chirmalarning nushasi barcha signalistlarni ta'minlashga etarli bo'lishi shart. Tuzilmaviy bo'linma rahbari ish boshqaruvchilari bilan ish joyiga borish va kelishda, hamda ishni amalga oshirishda tezyurar va yuqori tezlikdagi poezdlarini o'tkazish jarayonida xavfsizlik choralari bo'yicha aniqlik kiritishi zarur. Ish boshqaruvchilari ishchilarga maqsadli yo'l-yo'riq o'tkazib, ularga ishni amalga oshirishda aniq ish joyiga mos xavfsizlik choralari bo'yicha etkazishi zarur. Ish boshqaruvchilari lokomotiv brigadalariga alohida e'tiborlik bo'yicha ogohlantirishlar berilishi yuzasidan talabnoma berishi zarur.

Mehnat muhofazasi holati bo'yicha Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini aytib bering?

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash; mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish; barcha tashkilotlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash; mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish; xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish; fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish; ishlab

chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish; xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Mehnat muhofazasi bo'yicha normativ ta'minotini kim amalga oshiradi?

Mehnat muhofazasi bo'yicha normativ ta'minotni, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan birga mehnat muhofazasi bo'yicha ilmiy tasdiqlangan standartlar, qoidalar va me'yorlarni tuzish va qo'llash orqali ishlab chiqarishda mehnatni ta'minlash bo'yicha zarur bo'lgan talab darajasini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Korxonada ma'muriyati, ish beruvchi korxonada mehnat muhofazasi bo'yicha standartlar, qoidalar va me'yorlar talablarini bajarilishini ta'minlaydi.

Korxonada mehnat muhofazasi xizmati (lavozimi) qachon tashkil etiladi?

Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo'lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan tashkilotda yo'l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo'lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to'g'risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi. Mehnatni muhofaza qilish xizmati mutaxassislari mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalariga barcha xodimlar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish, tarkibiy bo'linmalarning rahbarlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tashkilot rahbariga taqdimnomalar kiritish huquqiga ega. Mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalari mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Tibbiy ko'rikdan o'tkazishni kim amalga oshiradi. U kimga yuklatilgan. Tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan ishchilarga ma'muriyatning hatti-harakati?

Ish beruvchi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda barcha kasbdagi va ishlab chiqarishdagi xodimlarni mehnat shartnomasini tuzganda birlamchi va uning amal qilish davrida davriy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishini ta'minlashi shart. Xodim tibbiy ko'rikdan o'tishga bo'yin tovlashga haqli emas. Tibbiy ko'rikdan o'tishdan eki tibbiy komissiyalarning tekshiruvlar natijasida bergan tavsiyalarini bajarishdan bo'yin tovlagan xodimlarni ish beruvchi ishga qo'ymaslikka haqlidir.

Qaysi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi va hisobga olinadi?

- Ikki va undan ortiq xodim bilan sodir bo'lgan guruhiiy baxtsiz hodisalar;

- Oqibati o'lim bilan yakunlangan baxtsiz hodisalar;

- Oqibati og'ir bo'lgan baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi. Jarohatlanishning og'irlik darajasi to'g'risida tibbiy xulosa tibbiy muassasa tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligining 1997 yil 7 iyuldagi 344-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan aniqlash sxemasiga asosan beriladi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish va yo'riqlashlarda ma'muriyatning vazifalari?

Ish beruvchi barcha yangi ishga kirayotgan, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullarini hamda baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga o'qitishni tashkil etishi shart. Xavfliligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishga ishga kirayotgan yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kirayotgan xodimlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullariga dastlabki tarzda tayyorlash, kasb bo'yicha imtihonlar topshirgan holda bir oy mobaynida stajirovka va so'ngra mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha davriy attestatsiya o'tkaziladi. Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan rahbarlari o'z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan o'tishi, yo'l-yo'riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o'tishi kerak. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan tartibda o'quvdan o'tmagan, yo'l-yo'riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo'yish taqiqlanadi.

Ishchilarning bilimini sinash turlari. Kim tomonidan va qanaqa muddatda o'tkaziladi?

Xodimlarni bilimni tekshirish birlamchi, davriy va navbatdan tashqariga bo'linadi. Har xil turdagi ishchilar barcha turdagi bilimlar tekshiruvini korxonada rahbari tomonidan belgilanadigan doimiy harakatdagi komissiyada me'yoriy xujjatda belgilangan muddatda topshiradi. Misol uchun: yuk ko'tarish mexanizmlarida xavfsiz ishga javobgar ishchilar, bosh energetiklar

- har yili; rahbarlar, muhandis-texnik xodimlar va boshqa mutaxassislar
- uch yilda bir marotaba.

Mehnat muhofazasi bo'yicha qonun va boshqa normativ xujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi kim tomonidan amalga oshiriladi?

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha qonun va boshqa normativ xujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazorati kim tomonidan amalga oshiriladi?

Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'zlari saylaydigan vakillar amalga oshiradilar. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan vakil ish joylarida mehnat muhofazasining ahvolini moneliksiz tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar

kiritish huquqiga egadir. Mehnat muhofazasi bo'yicha vakilga o'z vazifalarini bajarishi uchun har haftada ish paytida kamida ikki soat vaqt ajratib beriladi va o'rtacha ish haqi miqdorida haq to'lanadi.

Ishlab chiqarishda ishchiga keltirilgan ziyonni qoplab berish bo'yicha korxonaning moddiy javobgarligi?

Ma'muriyatning aybi bilan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan xodimga O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartib va miqdorda korxonada bir marta beriladigan nafaqa to'laydi hamda sog'liqqa etkazilgan shikast uchun tovon to'laydi. Bir marta beriladigan nafaqa miqdori jamoa shartnomasi (bitimi) bilan belgilanadi va jabrlanuvchining bir yillik maoshidan kam bo'lmasligi lozim. Agar xodim davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga muhtoj bo'lsa, korxonada jabrlangan xodimga bu tadbirlar bilan bog'liq harajatlarni to'laydi, shuningdek jabrlanuvchining kasbini o'zgartirib qayta tayyorlanishini va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishini ta'minlaydi yoki ana shu maqsadlar uchun ketadigan xarajatlarni qoplaydi.

Ish vaqti va uning normal davomiyligi?

Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi. Xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati etti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish bo'yicha ma'muriyatning majburiyati?

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni normativ xujjatlarda belgilangan muddatlarda o'z vaqtida tekshirishi va hisobga olib borishi shart. Jabrlanuvchining talabiga binoan tekshiruv tugagan kundan e'tiboran uzog'i bilan uch kun ichida ish beruvchi shu baxtsiz hodisa to'g'risida dalolatnoma berishi shart. Baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi korxonada (tsex) rahbari darhol hodisa to'g'risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilishi shart. Ish beruvchining buyrug'iga ko'ra ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida komissiya tuziladi. Komissiya: uch sutka ichida baxtsiz hodiisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat muhofazasi talablarini buzishga yo'l qo'ygan shaxslarni aniqlab so'roq qilishi, imkoni bo'lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi kerak. Ish beruvchining aybi aniqlanganda va normativ xujjatlar bilan aniqlanadigan boshqa xolatlarda ish beruvchi N-1 shakldagi dalolatnomani tuzadi. N-1 shakldagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisa korxonada tomonidan hisobga olinadi.

Yuqori tezlikdagi uchastkada yomon ko'rinishli holatda ish joyini to'siqlash tartibi?

Yomon ko'rinish sharoitlarida (tez burilishlarda, pastliklarda, o'rmon va qurilish joylarida, tumanda, bo'ronda va boshqa holatlarda) guruhni radioaloqa bilan ta'minlab ajratilgan ikki signalchi to'siqlashi, ulardan biri oldinda va ikkinchisi guruhning orqa tomonidan yurishi, ish rahbari esa guruh bilan birga yurishi zarur. Harakat tarkibi

yaqinlashganda signalchi radioaloqa orqali tezda ish rahbarini xabardor qilishi, u esa o'z navbatida ishchilarga yo'ldan uzoqlashishga buyruq berishi va uning bajarilishini nazorat qilishi zarur.

“Ish vaqtini jamlab hisobga olish” nima degani?

Korxonada smenali ishda, vaxta usuli bilan ishda va boshqa hollarda ish vaqtini davomiyligini hisobini yuritishda muvofiqlashtirish uchun hisobga olinadigan davrdagi ish vaqtining muddati ish soatlarining normal miqdoridan (belgilanganidan) oshib ketmaydigan shart bilan ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy qilinishi mumkin. Bunda hisobga olinadigan davr bir yildan, kundalik ish vaqtining (smenaning) muddati esa o'n ikki soatdan ortib ketmasligi lozim. Ish vaqtini jamlab hisobga olishni qo'llanish tartibi, shuningdek hisobga olinadigan davr mobaynida xodimlarga har oyda to'lanadigan ish haqi miqdorini tenglashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamoa shartnomasida belgilanadi, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi eki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilanadi.

Yuqori tezlikdagi uchastkalarda olinuvchi harakatlanuvchan birliklar bilan ish vaqtida xavfsizlik choralari?

Tezyurar va yuqori tezlikdagi poezdlar o'tishiga 20 daqiqa qolganida barcha olinuvchi harakatlanuvchan birliklar (ta'mirlash balanliklari (remontnaya vshka), yo'l vagonchalari, nuqson qidiruvchi va yo'l o'lchovchi aravalar) yo'llardan hamda uning qabul qilish va jo'natish yo'llariga chiquvchi stantsiya yo'llaridan olinishi va mahkamlanishi zarur. Stantsiyalar oralig'iga tezyurar poezdlarning o'tishiga 30 daqiqa qolganida olinuvchi birliklar, hamda olinmaydigan motor-reli transportlarning chiqishi taqiqlanadi. Tezyurar va yuqori tezlikdagi poezdning o'tishi kutilayotgan yo'lning yonida ishlar to'xtatilishi va uning o'tishidan 10 daqiqa oldin ishchilar ushbu yo'lning oxirgi relsidan 5 metrdan kam bo'lmagan masofaga uzoqlashishi zarur. Tezyurar va yuqori tezlikdagi poezdlarni o'tkazishda ishchilarning stantsiyalar oralig'idagi er to'shamasida joylashgan yo'llarda bo'lishi taqiqlanadi.

Qanday xolatlarda va qancha muddatga ishdan chetlatishga yo'l qo'yiladi?

Alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida ishga kelgan xodimni ish beruvchi, xodimni shu kuni (smenada) ishga qo'ymaslikga haqlidir. Xodim majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishdan bo'yin tovlagan yoki o'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha tibbiy komissiya tavsiyalarini bajarmagan taqdirda, ish beruvchi uni ishga qo'ymaslikka haqlidir. Temir yo'l transportida mehnat muhofazasi bo'yicha quyidagi huquqiy va normativ xujjatlar amal qiladi: O'zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi; Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish to'g'risida Nizom; shikastlanishda xodimlarga etkazilgan zararni qoplash to'g'risida Nizom; mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish va bilimni tekshirishni tashkillashtirish to'g'risida Nizom; mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkillashtirish to'g'risida Nizom; texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalarni tuzish to'g'risida Nizom; maxsus ust-kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalarini bepul berish to'g'risida Nizom; mehnat muhofazasi bo'yicha alohida rejim to'g'risida Nizom.

Yuqori tezlik harakati infratuzilma ob'ektlarini ko'rikdan o'tkazishdan oldin ish boshqaruvchining majburiyatlari?

Infrastruktura ob'ektlarini tekshirishdan oldin ish rahbari: Tekshirish uchun ishchilarga mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l-yo'riqlarni rasmiylashtirish jurnalida qayd etgan holda tekshiriladigan tezyurar va yuqori tezlikdagi liniyaning mahalliy xususiyatini hisobga olib maqsadli yo'l-yo'riq o'tkazishi; Ishchiga signal anjomlarini va poezdlar harakatidan ko'chirmani berishi; Radioaloqaning mavjudligini va ishlab chiqaruvchi zavodning xujjatlarida belgilab o'tilganday (foydalanuvchi qo'llanmasiga asosan) ishlashini tekshirishi; Maxsus ust-kiyim va maxsus poyabzal holatini tekshirishi; Tekshirish uchun asbobning sozligini tekshirishi zarur. Tarmoq kelishuvi (mehnat muhofazasi bo'limi) va uning bajarilishi? Tarmoq kelishuvi sohasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, mehnat sharoitlarini va uning to'lovini, sanoatda ishchilar uchun ijtimoiy kafolatlarni belgilaydi. Mehnat muhofazasi bo'limi ish beruvchi tomonidan tegishli kasaba uyushmalarining ish sharoitlarni yaxshilash bo'yicha taklifiga asosan rioya qilish majburiyatini oladigan barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Asosan, bu sog'liqni saqlash va sohaning korxonalarida ishchilarning xavfsizlik masalalari; jarohatlanishning oldini olish; shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash; ishlab chiqarishda jarohat olgan xodimlar uchun imtiyozlarni o'z vaqtida to'lanishi; ish joyida yomon ish sharoitlarini yaxshilash yoki bartaraf etish va boshqalar, Tarmoq kelishuvlarni amalga oshirilishi bo'yicha bajarilgan (yoki bajarilmagan) majburiyatlar to'g'risida, ish beruvchining hisobotlari eshitiladigan mehnat jamoasining yarim yillik yakuni bo'yicha yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

Bekatta turgan yo'lovchilarni va xizmat vagon kuzatuvchilarni yuqori tezlikda kelayotgan poezd o'tayotganligini ogohlantirish tartibi?

Stantsiyada turgan yo'lovchi poezdlar kuzatuvchilari va shaharlararo elektropoezdlar mashinistlari stantsiyaning yuqori tovushli aloqa vositasi orqali yon yo'ldan yuqori tezlikdagi "Afrosiyob" elektropoezdining o'tishi to'g'risida xabar olganlarida, "Afrosiyob" elektropoezdi tomonidan vagonlarning eshiklarini yopishi va yo'lovchilarni yuqori tezlikdagi poezdning o'tishi to'g'risida ogohlantirishi zarur.

Xodimlarni maxsus kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash. Korxonada va MTU tarmoq kelishuvida shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash to'g'risida bandi mavjudligi?

Mehnat qonunchiligi talablariga asosan ishchiga belgilangan me'yorlar bo'yicha maxsus ust-kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari bepul beriladi. Ish turlari, berish me'yorlari, ta'minot tartibi va shartlari jamoa shartnomalarida belgilanadi. Jamiyat korxonalarida O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan tasdiqlangan na'munaviy me'yorlarga asosan jamiyat boshqaruvi raisining 2004 yil 15 yanvardagi 15-N sonli buyrug'i bilan maxsus ust-kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalarini bepul berishning jamoaviy me'yorlari amalga kiritilgan bo'lib, unda kasb turlari, berilishi zarur bo'lgan maxsus ust-kiyim, maxsus poyabzal turlari va kiyish muddati ko'rsatib o'tilgan.

Korxonalarda mehnat muxofazasi bo'yicha standartlar, nizomlar va boshqa normativ xujjatlar ishlab chiqilishi?

Mehnat qonunchiligi talablariga asosan ish beruvchi ilmiy tasdiqlangan mehnat muhofazasi bo'yicha standartlar, me'yorlar, qoidalarni tuzish va qabul qilish yo'li bilan korxonada, har bir ish joyida sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashi shart. Ilmiy tasdiqlangan mehnat muhofazasi bo'yicha standartlar, me'yorlar va qoidalarni tuzishni Vazirlar Mahkamasi Kasaba uyushmasi birgalikda amalga oshiradi. Mehnat muhofazasi bo'yicha jamoaviy standartlar, me'yorlar va qoidalar Vazirliklar, idoralar tomonidan tuziladi. Hamda Adliya vazirligida 870-son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan tasdiqlangan yo'riqnomalarni tuzish to'g'risida Nizomga asosan korxonalar tomonidan xodimlarni va xizmatchilarni ishni amalga oshirishiga mehnat muhofazasi yo'riqnomalari tuziladi. Yo'riqnomalarni, nizomlarni va me'yorlarni qayta ko'rib chiqish normativ texnik xujjatlarda ko'zlab o'tilgan muddatlarda, ammo 5 yilda bir marotabadan uzoq bo'lmagan muddatda, yuqori xavfli ishlar uchun esa 3 yilda bir marotabadan uzoq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l-yo'riqlar turlari?

Xodimlarni yo'l-yo'riqlari kirish va ish joyidagi yo'l-yo'riqlarga bo'linadi. O'z navbatida esa ish joyidagi yo'l-yo'riqlar birlamchi, joriy, davriy va navbatdan tashqariga bo'linadi.

Mexnatni muxofaza qilishni davlat boshqaruvini amalga oshirish?

Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlariga muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tezyurar va yuqori tezlik uchastkasiga xizmat ko'rsatuvchi ishchi xodimlar ish joyiga qanday olib boriladi va qaytarib olib kelinadi?

Ish rahbari ishchilarga ishni amalga oshirishning aniq joyiga mos bo'lgan xavfsizlik choralarini etkazgan holda ularga mehnat muhofazasi bo'yicha maqsadli yo'l-yo'riqlarni berishi zarur. Ish rahbari lokomotiv brigadalariga alohida e'tibor bo'yicha ogohlantirishlar taqdim etish to'g'risida talabnomalar berishi zarur. Ogohlantirishlar poezdlar harakati va manyovr ishlari to'g'risida yo'riqnomada belgilangan holatlarda beriladi. Hamda ishning amalga oshirish joyi, vaqti, yo'llar, strelkali o'tkazgichlar, signalizatsiya, markazlashuv, boshqaruv, aloqa va kontakt tarmog'i uskunalarni tekshirish to'g'risida Jurnalda (DU-46 shaklda) yozuvlar qayd etilishi zarur. Tezyurar va yuqori tezlikdagi liniyalarda ish joyiga borishi va qaytishi uchun qoidaga asosan ishchilar temir yo'l yoki maxsus moslashtirilgan avtomobil transportida etkazilishi zarur.

Stantsiyalar oralig'iga chiqishdan oldin ish rahbarida poezdlar harakati to'g'risida jadvalning aniqlashtirilgan ko'chirmasi bo'lishi zarur. Xodimlarni tungi ishga jalb etish tartibi?

Tungi ish vaqti soat 22-00 dan 6-00 ga qadar hisoblanadi. 14 yoshga qadar (nogiron farzandlar 16 yoshgacha) farzandlari bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishga jalb etish taqiqlanadi. 18 yoshga qadar shaxslarni tungi ishga jalb etish taqiqlanadi.

Xomilador ayollar, 3 yoshga qadar farzandlari bor ayollarni, ishlovchi I va II guruh nogironlarini ularning roziligi bilan tibbiy hulosaga asosan ushbu ish taqiqlanmagan bo'lsa tungi ishga jalb etishga ruhsat beriladi.

Qanday qilib qonunchilikga asosan ish o'rnini shahodatlashda ish sharoitini umumiy baholash amalga oshiriladi?

Ish joylarida mehnat sharoitlarini baholash uchun ishlab chiqarish omillarining aniq parametrlari belgilanadi. Qabul qilingan ma'lumotlar ish joyining ish sharoitlari xaritasiga kiritiladi. Ushbu ma'lumotlarning natijalariga ko'ra xodimlarning imtiyozli nafaqalarga, yillik qo'shimcha ta'tillarga va noqulay ish sharoitidagi xodimlarning boshqa imtiyozlarga huquqlari belgilanadi.

«Afrosiyob» elektr poezdini yo'nalishi bilan kesishgan yo'lda ishlarni amalga oshirishni to'xtatish tartibi?

“Afrosiyob” elektropoezdi o'tkazish marshrutiga yaqin yo'llarda ishlarni bajarishda uning o'tishiga 30 daqiqa qolganida ishlar, jumladan og'ir turdagi yo'l mashinalarini, ta'mirlash balandliklari (vishka), yo'l vagonchalari, olinadigan nuqson izlovchi araqalar ishini ham to'xtatilishi zarur. Ishchilar yo'lning relsidan 5 metrdan kam bo'lmagan masofaga uzoqlashishi zarur. Gabarit buzilganda, u “Afrosiyob” elektropoezdi o'tishiga 30 daqiqadan kam bo'lmagan vaqt qolganiga qadar tiklanishi zarur.

Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqishda umumiy talablar?

Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnoma mehnatning xavfsiz va ratsional usullarini, ish joyini saqlash talablarini, asboblardan va uskunalarni ishlatishni, xavfsizlik uskunalari, xavfsizlik vositalarini aniq ishlab chiqarish holatida to'g'ri ishlatishni belgilovchi normativ xujjat hisoblanadi. Yo'riqnomalar alohida kasblar (elektrpayvandchilar, stanokchilar, chilangarlar, elektromontyorlar, farroshlar, laboratoriya ishchilari va boshqalar) uchun va alohida ishlar uchun (balandlikdagi ishlar, montaj ishlari, o'rnatish, ta'mirlash ishlari, sinovlarni o'tkazish va boshqalar) tuziladi. Yo'riqnomalarda faqat xavfsiz mehnatga taalluqli va ishchilarning o'zi tomonidan amalga oshiriluvchi talablar bo'lishi shart. Yo'riqnomalar talablari ishchilar uchun majburiy hisoblanadi. Ushbu talablarni bajarmamaslik ishlab chiqarish intizomini buzganlik sifatida ko'rib chiqiladi.

Navbatdan tashqari yo'l-yo'riqni o'tkazish tartibi?

Ishni xavfsiz bajarish bo'yicha ishlovchilarga navbatdan tashqari yo'l-yo'riqlar:

- ishlab chiqarish jarayoni o'zgarganda, bir turdagi qurilma boshqa turdagiga o'zgartirilganda v.h. hollarda;
- sex, bo'linma va brigadada baxtsiz hodisa yoki avariya sodir bo'lganda;
- ishni xavfsiz bajarish bo'yicha yangi qoida va yo'riqnomalarni kiritish orqali qo'yilgan qo'shimcha talablarni ishlovchilarning e'tiboriga etkazish zaruriyati to'g'rilganda;
- ko'rilgan choralarga qaramasdan ishlab chiqarish intizomi, qoida va yo'riqnomalarning buzilish hollari aniqlanganda;
- ishdagi tanaffuslarda: mehnat xavfsizligining qo'shimcha (kuchaytirilgan) talablari quyilgan ishlar uchun 30 kalendar kundan ziyod, qolgan ishlar uchun esa 60 kundan ziyod bo'lganda;

- ishlovchini xizmat safariga, shu jumladan bajariladigan boshqa tasnifli ishga jo'natganda;

- NBT-305 Nizomi asosida muhim ish rejimi e'lon qilinganda o'tkaziladi. Navbatdan tashqari yo'l-yo'riqlar o'tkazishda birlamchi yo'l-yo'riq dasturining faqat yo'riqlash sababi bilan bevosita bog'liq bo'lgan qismini ko'rib chiqish lozimdir. Navbatdan tashqari yo'l-yo'riq davriy yo'l-yo'riq singari bevosita ish rahbarlari (sex, bekat boshliqlari, ularning muovnlari, ustalar v.h.) tomonidan o'tkaziladi. Navbatdan tashqari yo'l-yo'riq birlamchi, davriy yo'l-yo'riq singari yo'l-yo'riqlarni rasmiylashtirish Jurnalida, ammo yo'l-yo'riqni o'tkazish sababini ko'rsatgan holda rasmiylashtiriladi

Kompyuter texnikasidan foydalanuvchi ishchi xodimning ish kuni (smenasi) davomiyligi?

8 soatlik ish vaqtida kompyuterda ishlash vaqti 4 soatdan oshmaganda ish vaqtiga qo'shilgan holda quyidagi tanaffuslar belgilangan:

- 1 toifadagi ishlar uchun: har 1.5-2 soatda 10 daqiqadan;
- 2 toifadagi ishlar uchun: har 1.5-2 soatda 15 daqiqadan;
- 3 toifadagi ishlar uchun: har 1.5-2 soatda 20 daqiqadan;

Tungi ishda (soat 22-00 dan soat 6-00 gacha), ish faoliyatini toifasiga qaramasdan, belgilangan tanaffus 1 soatga oshirilishi kerak. Belgilangan tanaffus vaqtlarida ruhiy hayajonlik, zo'riqishni, ko'rish analizatorini charchashini qisqartirish, gipodinamiya va gipokineziya ta'sirini bartaraf etish, poenotonik charchoqni rivojlanishini oldini olish maqsadida mashqlar kompleksi bajariladi.

Elektr xavfsizligi

Elektr xavfsizligi 1000 Vga qadar elektr qurilmalarida ishlashga naryad berish huquqi mavjud bo'lgan vakillar elektr xavfsizligi bo'yicha qanday guruhga ega bo'lishi kerak?

Naryad berish huquqi korxonaning elektr xo'jaligiga javobgar shaxsning buyrug'iga asosan elektrotexnik personaliga beriladi. Ko'rsatib o'tilgan shaxslar 1000 voltgacha bo'lgan elektr uskunalarda elektr xavfsizligi bo'yicha IV malaka guruhidan past bo'lmasligi kerak.

Elektr xavfsizligi bo'yicha qanday malaka guruhiga ega bo'lgan shaxsga qo'lda ishlash elektr mashinalarida ishlashga va texnik xizmat ko'rsatishga ruxsat beriladi?

Xavfliligi yuqori bo'lgan xonada va xona tashqarisida 1 sinfga doir elektr asboblari va qo'l bilan ishlanadigan elektr mashinalarida elektr xavfsizligi bo'yicha II malaka guruhiga ega personallar ishlashiga yo'l qo'yiladi. Elektr mashinalarining davriy tekshiruvi va sinovini elektr xavfsizligi bo'yicha III tasnif guruhiga ega maxsus birlashtirilgan personal amalga oshiradi.

Tok o'tkazuvchi qismlarga erlagichlarni o'rnatish va olish tartibi qanday?

O'chirilgan kontakt tarmoqlarining elektr uzatish liniyalarida va havo liniyalarida ishlashda asosiy xavfsizlik choralaridan biri himoyalovchi ko'chirma erlagichlar hisoblanadi. Himoyalovchi erlagichlar o'chirilgan uchastkalarga to'satdan kuchlanish

berilganda, o'zgaruvchan tokli liniyalarda esa boshqa liniyalardan magnit maydoni orqali hosil bo'luvchi kuchlanish (navedyonnoe napryajenie) dan ishchilarning xavfsizligini ta'minlaydi. Himoyalovchi ko'chirma erlagichlarni o'rnatishda avvalo erlagich shtangani relsga (erga) ulash zarur, so'ngra ishlash rejalashtirilgan simlarga. Uzish teskari ravishda amalga oshiriladi.

Elektr qurilmalarda qaysi ishlar naryad bo'yicha, qaysilari farmoyish bo'yicha amalga oshiriladi?

Naryad – bu ish hududi (joyi) ni, guruhi va uni amalga oshirish shartlarini, boshlash va tugatish vaqtlarini, zarur bo'lgan xavfsizlik choralarini, brigada tarkibini va shaxslarini, ishni xavfsiz amalga oshirishga javobgar shaxslarni belgilovchi, o'rnatilgan shakldagi blankada tuzilgan yozma ravishdagi ishni amalga oshirish topshirig'i. Farmoyish – bu shuning mazmunini, joyini, vaqtini, xavfsizlik choralarini (agar ular zarur bo'lsa) va uni amalga oshirishga tayinlangan shaxslarni belgilovchi topshiriq. Ishlayotgan elektr uskunalarida: Poezdlarni soatiga 250 km. tezlik bilan harakatlanishini ta'minlovchi 27,5 kV kuchlanishdagi kontakt tarmog'i uskunalarida; kontakt tarmog'i ustunlaridagi va mustaqil ustunlarda simlarni ekranlovchi va kuchaytiruvchi to'yintiradigan va so'radigan liniyalarda; kontakt tarmog'ini ushlab turuvchi konstruktsiyalarda va alohida turgan ustunlarda joylashgan 0,4; 10(V); 27,5 kV havo liniyalari (shu jumladan 27,5 kV li “bitta sim-rels” (OPR) va “Ikkita sim - rels” (DPR) tizimi) va to'yinuvchi SMB uskunalarida; optik tolali aloqa liniyalari (VOLS kabellari) va poezd radioaloqasining to'lqin tarqatuvchi liniyalari (kontakt tarmog'ining ustunlarida osish me'yorlari) da; sektsiyalash postlarini qo'shish uskunalari, strelkali o'tkazgichlarni elektr isitish va tayyorlash punktlarida yo'lovchi tarkiblarni elektr isitish uskunalarida; yuqori kuchlanishdagi liniyalar (VL) ga ulangan barcha turdagi to'liq to'plamdagi transformatorli nimstantsiyalar (KTP), signal nuqtalarini to'yintirish uchun kuchlanish ustunlarida. yuqorida sanab o'tilgan elektr uzatish liniyalariga taalluqli kabelli liniyalarda; kontakt tarmog'ining ustunlari va qattiq ko'ndalanglarida hamda mustaqil ustunlarda (projektor machtalaridan tashqari) o'rnatilgan tashqi yoritish uskunalari (girlyandlini qo'shganda ham) da; erlash uskunalarida texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va sinash bo'yicha barcha ishlar naryadlar yoki farmoyishlar bilan amalga oshiriladi.

Elektr xo'jaligi bo'yicha javobgar shaxsning elektr xavfsizligi bo'yicha qanday malaka guruhiga bo'lishi kerak?

Elektr xo'jaligiga javobgar shaxs 1000 V kuchlanishdan yuqori elektr uskunalariga xizmat ko'rsatishda elektr xavfsizligi bo'yicha V malaka guruhiga va 1000 V kuchlanishdan pastiga IV malaka guruhiga ega bo'lishi shart.

“Qadam kuchlanishi” nima degani?

Odamning oyoqlari ostidagi tokning taralishi sababli er yuzidagi potentsiallar farqi “qadam kuchlanishi” deb ataladi. Qadam kuchlanishining katta-kichikligi erga tutashuvchi joydan qadamning kengligi va “x” masofaga bog'liq. Tutashuv joyidan uzoqlashgan sari qadam kuchlanishi xavfi kamayadi. Qadam kuchlanishidan himoyalalanishning asosiy vositalari etib potentsiallarni tenglashtirish hisoblanadi. Qoidaga asosan potentsiallar konturli erlagichlarni o'rnatish orqali tenglashtiriladi. Konturli erlashda erlagichlar erlanadigan asbob-uskuna joylashgan maydonning konturi (perimetri) atrofida hamda ichki himoya zonasida o'rnatiladi, yoki butun maydon atrofida

tarqatiladi. Yerga qadalgan vertikal erlagichlar (quvur, burchaklar) himoyalانuvchi ob'ekt chegarasida uzun po'lat metall parchalari(plastika) bilan bog'lanadi.

Odamlarning elektr tokidan jarohatlanishining oldini olishga qaratilgan xavfsizlik talablari?

Odamning elektr tokidan zararlanishni ogohlantirish choralarining asosiylari etib bir qancha tashkiliy va texnik tadbirlarni so'zsiz bajarish hisoblanadi. Tashkiliylarga o'chirishni amalga oshirish kiradi. Texnik choralarga o'chirishlarni amalga oshirish, ogohlantiruvchi plakatlarni osish va ish joyini to'siqlash, kuchlanish yo'qligini tekshirish, erlagichlarni o'rnatish kiradi.

Insonlarni elektr tokidan jarohatlanish xavfiga qarab ishlab chiqarish xonalarini bo'linishi?

Ishlab chiqarish xonalari insonlarni elektr tokidan jarohatlanish xavfiga qarab yuqori xavfli, o'ta xavfli va yuqori xavfi bo'lmagan xonalarga bo'linadi. O'ta xavfli xonalar yuqori namlikga (100%ga yaqin) yoki kimyoviy faol muhitga ega bo'ladi. Bunday xonalarga shimdiriladigan, galvanik, gazogeneratorli bo'limlar, dush, kir yuvish va boshqalar kiradi. Namlik uzoq muddat davomida 75% yoki havoning issiqlik darajasi uzoq muddat davomida +30S, yoki tok o'tkazuvchan pollar, yoki tok o'tkazuvchan changlar, bir paytning o'zida odamning bir tomondan binolar metal konstruksiyalarining, texnologik apparatlarning, mexanizmlarning erga ulanishlariga va boshqa tomondan elektr uskunalarning metal korpuslariga tegib ketish ehtimolligi mavjud xonalar "yuqori xavfli" xonalar hisoblanadi. Bunday xonalarga temirchilik, mexanik, duradgorlik, isitilmaydigan omborxonalar va boshqalar kiradi. Yuqori xavfi bo'lmagan xonalarga birinchi ikkita kategoriyada sanab o'tilgan omillar mavjud bo'lmagan xonalar kiradi. Bu idoralar, maishiy va isitiladigan omborxonalar kiradi.

Elektr qurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi personalga qo'yilgan talablar?

Elektr qurilmalariga xizmat ko'rsatishga 18 yoshdan kam bo'lmagan, tibbiy ko'rikdan o'tgan ishchilarga ruxsat beriladi. Ularning barchasi elektrotexnika bilimlariga ega bo'lishi, xizmat ko'rsatiladigan qurilmalar, xizmat ko'rsatiladigan uskunalarning sxemalarini va xususiyatlarini bilishi, mumkin bo'lgan xavflar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi, xavfsizlik qoidalarini bilishi va qo'llanishi, birinchi yordamni taqdim etishni bilishi kerak. Bilim darajasi xavfsizlik uchun malakali guruhni tayinlash bilan aniqlanadi.

Kuchlanish yo'qligi nima bilan qanday tekshiriladi?

-Tekshirish, barcha turdagi ishlarning boshlanishidan oldin kuchlanishini olib tashlash bilan, amalga oshiriladi. Yerga va o'chirilgan elektr qurilmasidagi nollangan singa nisbatan barcha fazalar va har bir faza o'rtasidagi kuchlanish yo'qligi qabul qiluvchi tomonidan aniqlanadi. 110 kV gacha bo'lgan qurilmalarda kuchlanish yo'qligi kuchlanish ko'rsatkichi (indikator) yordamida tekshiriladi. - ko'rsatkichni (indikatorni) ishlatishdan oldin uning sozligi tekshiriladi. Buning uchun ko'rsatkich kuchlanish ostidagi tok o'tuvchi qismlarga yaqinlashtiriladi. Ko'rsatkichning sozligini tekshirish singari, kuchlanish yo'qligini tekshirishni ham dielektrik qo'lqoplarda amalga oshiriladi.

1000 Vga qadar elektr qurilmalarida insonni elektr toki ta'siridan qutqarish?

Biror kishi elektr toki bilan shikastlansa, uni tok ta'siridan tezda chiqarish kerak.

Buning uchun eng yaxshisi qurilmani eng yaqin o'chirgich yordamida o'chirish yoki tok zanjirini (1000V) asboblari (pichoq, keskich, bolta va boshqalar) yordamida kesish orqali uzish kerak. Jarohatlanganda yuqorida bo'lgan holatlarda o'chirilgandan keyin unga yiqilish xavfi soladi, buning uchun yiqilishni yoki tan jarohati olishini oldini olish choralarini ko'rish kerak. Jarohatlanganni qutqarish uchun qurilmani o'chirish imkoni bo'lmasa, tok o'tkazmaydigan har qanday jism, masalan qo'lni bo'yinbog' bilan o'rab, quruq ust-bosh yoki yog'ochni ustiga chiqish, jarohatlanganni quruq ust-kiyimidan ushlash va uni tok o'tkazuvchi qismlardan tortib ketishi zarur. Eng yaxshisi buning uchun dielektrik himoya vositalaridan foydalanish, agar jarohatlangan tirishib-tortishib simlarning birini siqib olgan bo'lsa, jarohatlangan orqali zanjirni uzish mumkin. Buning uchun quruq yog'ochni, fanerani ostiga kirgizish yoki quruq arqon bilan uning oyoqlarini erdan uzish mumkin.

Elektr qurilmalarida ishlarni rasmiylashtirish?

Ish qoidaga asosan joriy foydalanish tartibida ishning tasnifi va xususiyatini, joyi, vaqti va brigada tarkibining malakasi, uni bajarish uchun xavfsizlik shartlari, javobgar shaxslarni belgilovchi naryad yoki farmoyish bilan amalga oshiriladi. Naryad ikki nusxada yozib beriladi, bir nusxasi ish boshqaruvchisiga beriladi, ikkinchi nusxasi naryad yozib berganda qoladi. Naryadning amal qilish muddati 5 sutkaga qadar belgilanadi, naryad bir marta 5 kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin, naryadsiz ishlar faqat avariya holatlarda energodispatcherning buyrug'i asosida hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni o'tkazishni talab etmaydigan ishlar amalga oshirilishi mumkin. Naryad yozib beruvchi V malaka guruhiga ega bo'lishi kerak (1000 V ga qadar qurilmalarda IV guruhidan past bo'lmagan). Dielektrik qo'lqop va unga qo'yiladigan talablar. Dielektrik qo'lqop yuqori sifatli rezinadan tayyorlanadi va ikki turda – yopishqoq va quyma, choksiz ishlab chiqariladi. Dielektrik qo'lqoplarning uzunligi 350 mm.dan kam bo'lmasligi kerak. Ish vaqtida dielektrik qo'lqoplarni chekkalarini qayirish mumkin emas. Qo'lqoplarni englar ustidan kiyish zarur. Foydalanishdagi qo'lqoplarni davriy ravishda (mahalliy sharoitga asosan) sodali yoki sovunli eritma bilan dezinfektsiyalash zarur. Sovuq paytda qo'lqoplardan xonadan tashqarisida foydalanishda ularni xuddi shunday junli yoki paxtali qo'lqoplar ustidan kiyish mumkin. Qo'lqoplarda raqami va keyingi sinovi ko'rsatilgan tamg'a (shtamp) bo'lishi kerak. Dielektrik qo'lqoplar 6 oyda bir marotaba 6 kV kuchlanish bilan 1 daqiqa davomida tekshiriladi.

Elektr qurilmalarida ishlash vaqtida nazorat?

Yuqoriga ko'tarilish bilan bog'liq kontakt tarmog'ida, elektr uzatish liniyalarida va havo liniyalaridagi barcha ishlar kamida ikkita xodim bilan bajariladi. Nazoratni ish rahbari, ishda ishtirok etish huquqsiz amalga oshiradi. Uning o'zi eng og'ir ishni bajarayotganda zarurat bilan brigada a'zolaridan maxsus ajratilgan nazoratchi nazoratni amalga oshiradi (III va IV malaka guruhi).

Elektr uskunalardan foydalanishda tanaffus belgilanishi va ishni tugatilishi tartibi?

Ishni bajarish jarayonida brigadaga ishlab chiqarish sharoitlariga asosan dam olish va ovqatlanish uchun vaqt ajratiladi. Dam olishdan oldin ishni amalga oshiruvchi guruhga ishlarni to'xtatish to'g'risida buyruq berib, barcha ishchilar ularni tugatganligi, asbob-uskunalarini va moslamalarini olib tashlaganligiga ishonch hosil qiladi. Bundan keyin ishni amalga oshiruvchi barcha brigadani yig'adi va brigada ochiq yoki yopiq

Taqsimlash qurilmasi (RU) dan uzoqlashadi. Brigadaning birorta a'zosi ham dam olishdan keyin ishni amalga oshiruvchi (nazoratchi) yo'qligida ochiq yoki yopiq Taqsimlash qurilmasi (RU) ga kirishga haqqi yo'q. Dam olish tugagandan keyin ishchilarga ishni qaytadan amalga oshirishga ruhsat beradi. Ishlar tugagandan keyin brigada ish joyini tartibga keltiradi, ishni amalga oshiruvchi tomondan uskunani ko'rib chiqib, brigadani olib chiqqandan so'ng, rahbar naryadda uning tugaganligi to'g'risida imzolaydi.

Himoyaviy erga ulash qaerda qo'llaniladi?

Himoyaviy erga ulash – elektr qurilmalarning tok o'tkazmaydigan metal qismlarini erlagichlar yordamida erga ataylab elektr ulanishiga aytiladi. Himoya erlagichi 1000 V kuchlanishdagi izolyatsiyalangan neytralli elektr tarmoqlaridan va kuchlanishi 1000 V dan yuqori har kandy rejimdagi neytral energiya manbaidan to'yinadigan elektr qurilmalarida ishlatiladi. Fazaning qobiqqa tutashuvida tok ikki parallel yo'nalishda (qobiq-er, inson-er) bo'ylab o'tadi va ularning orasidagi qarshiliklarga teskari proporsional ravishda taqsimlanadi. Inson-er zanjirining qarshiligi tana zanjiri qarshiligiga karaganda ko'prok bo'lganligi sababli, inson tanasidan o'tadigan oqim miqdori sezilarli darajada kamayadi.

Kim, qachon va qanday muddatda ko'chiriluvchi elektr uskunalarni sozligini tekshiradi?

Elektr asbobining seriyali raqami bo'lishi va IV darajadan past bo'lmagan malaka guruhiga ega bo'lgan xodim tomonidan oyda kamida bir marta megommetr yordamida tekshirilishi kerak. Bunda qobiqqa tutashuvning yo'qligi, erlagich simini uzilish izolyatsiyasini sozligi tekshiriladi.

Elektr qurilmalarida ishlashga ruxsat etish tartibi?

Brigadani ishga qo'yish maxsus xodim tomonidan brigada va ish boshlig'i ishtirokida amalga oshiriladi. Agar ish energiya dispecherining buyrug'i bilan amalga oshirilsa, buyruq bir vaqtning o'zida brigadani ishlashga ruxsat beradi. Oldindan vaqtni belgilab ishlarni bajarishga ruxsat berish taqiqlanadi. Sababi har qanday vaziyatda poezdlar harakati bo'yicha holat o'zgarishi mumkin. Bunda hatto bilan ishchilarga kuchlanish berish yoki boshqa xavfli vaziyatlarni yaratish mumkin. Brigadani ishga qo'yishdan oldin ish rahbari yo'l-yo'riq o'tadi. Bunda u ishni bajarish kerak bo'lgan uchastkaning chegaralariga aniqlik kiritadi, ishlarning toifasini kursatadi, erlagich shtangalarini o'rnatish joylarini va ish joyini to'siqlashni belgilaydi. Brigada azolari orasida majburiyatlarini taqsimlaydi va boshqalar.

Elektr tokidan jabrlanganda birinchi yordam ko'rsatish?

Elektr tokidan shikastlanganga birinchi yordam – elektr tokidan ajratish (toksizlantirish), sunniy nafas berishni amalga oshirish (og'izdan - og'izga), hayot faoliyatining asosiy omillarini ushlab turish – sunniy nafas berish orqali nafas olishini tiklash yoki tashqi uqalashni amalga oshirish. Buning uchun jarohatlanganni elkasiga yotqizish, og'zini ochish, o'zining bitta qo'lini bo'yin ositiga qo'yish, boshqasi bilan esa peshonasini bosish kerak. Zarur hollarda tishlarini ochish va tili orqaga ketmaganligiga ishonch xosil qilish, boshini yonga burish, og'zini so'laklardan va begona jismlardan (qo'yilma jag'dan) tozalash zarur. Ust-kiyimdan o'ralgan o'ramani boshi orqa tomonga tushgan va tag jag'i ko'krak qafasi bilan bir me'yorda turgan holda elkalar ostiga qo'yish

(bo'yni yoki umurtqasi ostiga emas) zarur. Ko'krakga nafasni to'ldirish va salfetka orqali jabrlanganni burnini qo'l yoki bet bilan yopgan holda unning og'ziga nafas berish zarur. Nafas chiqarish ko'krak qafasining og'irligi hisobiga o'z-o'zidan sodir bo'ladi. Nafas berish va chiqarishni 5-6 sekund, ya'ni bir daqiqada 10-12 marotaba nafas berish-nafas chiqarish amalga oshiriladi. To'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan yurak uqalanishi puls bo'lmagan paytda amalga oshirilsin. Nafas berish – nafas olish tsikllarini amalga oshirishda tezkorlik bilan qo'llarni panjalarini qo'qraq qafasining uchdan bir qismiga qo'yib (ko'krak qafasidagi tugundan 2 sm. yuqoriroq), ko'krak qafasini bosish va nafas chiqarish oralig'ida 3-4 marta davomiylik bilan qo'yib yuborish. To'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan uqalashni jabrlanuvchida puls paydo bo'lganga qadar yoki tez tibbiy yordam shifokori kelguniga qadar amalga oshirish kerak.

Elektr tokidan jabrlanishni oldini olish uchun asosiy himoya vositalari?

Elektr qurilmalarda ishlatiladigan himoya vositalariga quyidagilar kiradi: Izolyatsiyalovchi tezkor shtangalar, izolattsiyalovchi qisqichlar, kuchlanish ko'rsatikchlari, izolyatsiyalovchi o'lchov shtangalari, tok o'lchovchi qisqichlar, izolyatsiyalovchi narvonlar, maydonchalar, changaklar va izolyatsiyalangan dastali asboblari, rezinali dielektrik qo'lqoplar, botlar, kalishlar, gilamchalar, ko'chiriluvchi erlagichlar, vaqtinchalik to'siqlar, ogohlantiruvchi plakatlar.

Nolga ulash nima degani?

Qobiqqa tutashuv oqibatida kuchlanish ostida qolishi mumkin bo'lgan elektr qurilmalarining tok utkazmaydigan kismalarini oldindan nol sim bilan ulab kuyish nolga ulab muxofaza qilish deyiladi. Nolga ulab qo'yish maqsadi – qobiqqa tutashuv oqibatida kuchlanish ostida qolgan elektr qurilmalarning qobig'iga va boshqa tok o'tkazmaydigan metal qismlariga teginib ketishda tok urish xavfini bartaraf etish. Himoya erlagichiga nisbatan ushbu masala quyidagi usul bilan echiladi: shikastlangan elektr qurilmasi tezlik bilan tarmoqdan uziladi. Ammo qobiq nollangan himoya simi orqali erlanganligi sababli avariya holatda, ya'ni qobiqqa tutashuv paydo bo'lish davridan qurilmaning tarmoqdan uzilishiga qadar ushbu erlanishning himoya xususiyati himoya erlanish kabi paydo bo'ladi. Nolga ulashning ishlash printsipi – himoyaning ishlab ketishini ta'minlashi va shu bilan shikastlangan qurilmani avtomatik ravishda tarmoqdan uzish imkoni bo'lgan katta tok kuchini paydo qilish maqsadida qobiqdagi tutashuvni bir fazali qisqa tutashuvga aylantirishdir (ya'ni fazali va nolli simni tutashtirish). Ushbu himoyaga qisqa tutashuv toklaridan elektr energiyasi iste'molchilarini himoya qilish uchun ulardan oldin qo'yiladigan eruvchan predoxranitellar yoki maksimal avtomatlar, iste'molchini zo'riqishdan himoyalovchi masofada ishga tushirishga va termik releli kontaktorlari mavjud elektrodvigatelni to'xtatishga mo'ljallangan issiqlik himoyasi o'rnatilgan magnit starteri va oxiri bir paytning o'zida qisqa tutashuv toklaridan va zo'riqishdan himoyalovchi kombinatsiyalangan uzgichli avtomatlar. Nolga ulash sohasi – neytral erga mustaxkam ulangan 1000 V uch fazali 4 ta simli tarmoqlar. Odatda bunday tarmoqlar 380/220 V, 220/127 V, hamda 660/380 V tarmoqlaridir.

Yong'in xavfsizligi.

Temir yo'l transporti ob'ektlarida yong'inni oldini olish bo'yicha nazoratni kim amalga oshiradi?

Temir yo'l transportida O'zbekiston Respublikasi Qonuning 22-moddasi, hamda "O'zbekiston temir yo'llari" AJning xarbiylashtirilgan qo'riqlash boshqarmasining Nizomiga asosan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarida Yong'inni oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni amalga oshirish va belgilangan yong'in xavfsizligi talablarining bajarilishini nazorat qilish jamiyatning xarbiylashtirilgan qo'riqlash boshqarmasiga yuklatilgan.

Yong'in xavfsizligiga javobgar shaxslarning javobgarligi va majburiyatlari?

Korxonalar va muassasalarda yong'in xavfsizligi tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirilishiga, belgilangan talabda yong'in xavfsizligi rejimini ushlab turilishiga shu korxonalar va tashkilot rahbarlari javob beradi. TSexlar, ustaxonalar, omborlar va boshqa ob'ektlarda yong'in xavfsizligi bo'yicha javobgarlik, hamda ularda yong'in xavfsizligi tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirilishiga javobgarlik tsex, ombor, ustaxona boshlig'iga yuklatiladi. Yong'in xavfsizligiga javobgarlar tsex, ustaxona va ombor ishchi-xizmatchilariga yong'in xavfsizligi qoidalari va yong'in davrida xatti-xarakat tartibi to'g'risida tushuncha berishi, ishlab chiqarish texnologiyasi jarayonini xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yong'in xavfsizligi yo'riqnomalarini ishlab chiqarishda ishtirok etishi, ushbu yo'riqnomalar bo'yicha ishchi-xizmatchilarni, muxandis texnik personallarni o'qitishi, isitgichlar, xavo so'rgichlar, elektr uskunalari, elektr simlarini sozligi nazoratini olib borib, aniqlangan nozozliklarni bartaraf etishi choralarini ko'rish, ish vaqti tugashi bilan tozalash ishlarini olib borib, elektr tizimi o'chirilishini (navbatchi yorug'likdan tashqari) tekshirib turishga majbur. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari yong'in xavfsizligi tadbirlarini olib borilishidan tashqari, yong'in xavfsizligi uskunalari va anjomlari bilan o'z vaqtida ta'minlanishi, to'g'ri ishlatilishi va saqlanishiga javobgardir.

O'z-o'zidan yonib ketishning xavfi va sababi nimada?

O'z-o'zidan yonish – modda tarkibidagi kimyoviy, fizik-kimyoviy va biologik jarayonlar oqibatida kelib chiqqan yonish jarayoni xisoblanadi. O'z-o'zidan yonish ochiq alangaga yaqinlashish va tashqaridan issiqlik oqimi oqibatida kelib chiqadi. Oksidlanish (havodagi kislorod bilan birikish) oqibatida issiqlik yig'ilishi, jumladan temperaturani oshishi atrofda muhitga issiqlikni tarqalish miqdoridan oshib ketsa o'z-o'zidan yonish jarayoni tezlashadi. O'z-o'zidan yonuvchi moddalar uch guruhga bo'linadi: Havoda ta'sirida o'z-o'zidan yonuvchi moddalar. Ularga o'simlik va xayvon yog'lari, tosh va kulrang ko'mir, torflar, tozalashdan keyingi materiallar, yog'och qirindilar va boshqalar kiradi. Suv ta'sirida o'z-o'zidan yonuvchi moddalar. Ularga kaksiy karbidi va ishqor moddalar karbidlari, metalli kaliy, so'ndirilmagan ohak va boshqalar kiradi. Bir-biri bilan birikishi oqibatida o'z-o'zidan yonuvchi moddalar. Bu guruhga har hil gazsimon, suyuq va qattiq oksidlovchilar, masalan, kuchli oksidlovchilar xisoblangan galogenlardan xlor, brom, fluor va yod kiradi. Atsetilen, vodorod, metan va etilenning xlor bilan birikmasi kunduzgi yorug'likda o'z-o'zidan yonadi, shu sababli xlor va boshqa galogenlarni tez yonuvchi moddalar bilan birgalikda saqlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yong'in sodir bo'lganda evakuatsiya yo'llariga qo'yiladigan talablar?

Evakuatsiya yo'llari va chiqishlarni:

- Ateriallar, buyumlar, asbob-uskunalar, chiqindilar bilan to'sib qo'yish, hamda evakuatsiya chiqishlarni mixlab tashlash;
- Chiqish tamlarida ust-kiyim, anjomlar va materiallar saqlanadigan joylar

tashkillashtirish;

- Evakuatsiya yo'llarida odamlarni bemaol evakuatsiyasiga to'siq bo'luvchi ostonalar, ikki yoqqa suriladigan, ko'tariladigan, aylanadigan eshiklarni va boshqa moslamalarni o'rnatish;

- Zina ostida yonuvchi materiallarni saqlash;

- Devor va shiftlarga, hamda evakuatsiya yo'llarining zinapoya zina maydonchalariga pardo berish, sirtini qoplash, bo'yash uchun yonuvchi materiallardan foydalanish;

- Evakuatsiya maqsadida liftlar va eskalatorlardan foydalanish;

- Ish vaqtida evakuatsiya yo'llari eshiklarini qulf bilan mahkamlash taqiqlanadi. Ichkaridan bemaol ochiladigan qulfdan (kalit bilan mahkamlanmaydigan) foydalanish mumkin. Evakuatsiya chiqishlar alohida joylashtirilishi zarur. Evakuatsiya chiqishlar 2 tadan kam bo'lmasligi zarur. Ishlovchi xodimlar soni 50 kishidan ortmaydigan binolarda bitta evakuatsiya chiqishlari ruxsat beriladi. Eshiklar evakuatsiya yo'nalishi bo'yicha ochilishi zarur. Derazalarga panjaralar o'rnatishni o't-o'chiruvchilar bilan kelishish zarur. Yo'laklar, vestibyullar, zinapoya panjaralari eshiklarida ichkaridan bemaol kalitsiz ochilishiga xalaqit beruvchi qulf bo'lmasligi zarur. Binolarda texnologik, ko'rgazmali va boshqa uskunalarni joylashtirishda loyixalash me'yorlariga asosan zinapoya panjaralari va boshqa evakuatsiya yo'llariga o'tish ta'minlanishi kerak. Odamlar ommaviy keladigan binolarda elektr energiyasi o'chirilishi holatida xizmat ko'rsatuvchi personallarda elektr fonarlari bo'lishi zarur. Fonarlar soni, muassasaning o'ziga xos xususiyatlari, navbatchi personallar mavjudligi, binoda odamlar sonini hisobga olgan holda, ammo navbatchi personallarni xar bir xodimiga bir donadan kam bo'lmagan holda, rahbar tomonidan belgilanadi. Odamlar ommaviy keladigan binolarda gilamlar, gilam to'shamalari va boshqa pol to'shamalari polga mustaxkam mahkamlanishi zarur.

Sizning korxonangizda yong'in xavfsizligi bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari o'tkazilishi?

Korxonada yong'inlarni oldini olish maqsadida korxonada rahbarining yong'in xavfsizligiga javobgar shaxslar to'g'risida buyrug'i chiqarilganligi, xodimlar yong'in xavfsizligi qoidalari va yong'in sodir bo'lganda hatti-harakati bo'yicha o'qitilganligi, chekish uchun joylarni belgilanganligi va jihozlanganligi, vaqtinchalik olovli va boshqa yong'inga xavfli ishlar amalga oshirish tartibini, ishlarni tugatgandan keyin xonalarni tekshirish va yopish tartibi belgilanishi zarur. Elektr uzatmali moshina va mexanizm uskunalarining qobiqlari erga ulangan bo'lishi, korxonada hududi o'z vaqtida yonuvchan chiqindilar, axlat, qurigan barglar, qurigan o'tlardan tozalanishi va ularni maxsus ajratilgan joylarda yig'ib, o'z vaqtida olib chiqish zarur, korxonada hududida o't-o'chirish moshinalarini o'tishi uchun 5 metrdan kam bo'lmagan bo'sh yo'laklar va ularning aylanishi uchun maydonchalar bo'lishi kerak. Ma'muriyat, sanitariya-maishiy xonalari mavjud har bir binoda kamida 2 ta o't-o'chirgich bo'lishi, binolar va xonalarni isitish uchun bug'li va suvli kaloriferlar hamda zavodda ishlab chiqarilgan elektr isitgichlar ishlatilishi zarur

O't o'chirish moddasi turiga qarab qanday o't-o'chirgichlar mavjud?

Ishlatiladigan o't o'chirish moddalariga qarab o'to'chirgichlar suvli (OV), kukunli (OP), a) uglekistlota (OU); b) xladon (OX) gazli, kimyoviy ko'pikli (OXP) va havo

ko'pikli (OVP) kimyoviy, hamda kombinatsiyalangan (ko'pik, kukun) larga bo'linadi.

O't-o'chirgichlardan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomada qanday ma'lumotlar bo'lishi kerak va u kim bilan kelishiladi?

Bir turdagi o't-o'chirish moddasi bilan to'ldirilgan o't-o'chirgichlarga tashkilot (korxonalar) maxalliy davlat o't-o'chiruvchilar tashkiloti bilan kelishilgan holda ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish yo'riqnomasini rasmiylashtiradi. Yo'riqnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi zarur: o't-o'chirgich markasi, o't-o'chirgichning asosiy parametrlari, o't-o'chirgichdan foydalanishda temperatura darajasi cheklovlari, yong'in vaqtida personallar xatti-xarakati, o't-o'chirgichlarni qo'llash tartibi, qo'riqlanadigan ob'ektlarda asosiy taktik usullar, o't-o'chirilgandan keyin personalning xatti-xarakati, xajmi va o't-o'chirgichga texnik xizmat ko'rsatish davriyligi, o't-o'chirgichlardan foydalanishda va texnik xizmat ko'rsatishda texnika xavfsizligi qoidalari.

O't-o'chirgichlarni tekshirish va sinashni o'tkazish muddati?

O't-o'chirgichdan foydalanishdan oldin u tashqi ko'rikdan, o't-o'chirgich jamlanmasi, uni joylashtirish joyi, o't-o'chirgichdan foydalanish yo'riqnomasini o'qish imkoniyatligi va tushunarligi bo'yicha birlamchi tekshiruvdan o'tkaziladi. Har yillik tekshiruv tashqi ko'rik va joylashgan joyi tekshiruvini o'z ichiga oladi. 5 yildan kam bo'lmagan muddatda har bir o't-o'chirgich va siquvchi gazli balon bo'shatilishi, o't-o'chirgich korpusi o't-o'chirish moddasidan tozalanishi, tashqi va ichki ko'rik amalga oshirilishi, hamda o't-o'chirgich korpusini, ishga tushirish boshchasini, shlangini va qulflash qurilmasini mustahkamligini tekshirish uchun gidravlik sinovdan, germetikligi tekshirish uchun pnevmatik sinovdan o'tkazish zarur. Bir yildan bir marta kam bo'lmagan muddatda suvli va ko'pikli o't-o'chirgichlarni qayta to'ldirish zarur. Kukunli, uglekislotali va xladonli o't-o'chirgichlarni qayta to'ldirish besh yilda bir marotaba amalga oshiriladi.

O't o'chirish qalqonida qanday o't o'chirish asboblari bo'lishi kerak?

O't-o'chirish qalqonlarida changaklar, lomlar, boltalar, belkuraklar, chelaklar va o't-o'chirgichlar, har bir o't-o'chirish qalqoni oldida esa – qum zaxirasi to'ldirilgan quti (sig'imi 0,5;1,0 yoki 3,0 metr kub) va suv sig'imi (xajmi 0,2 metr kubdan kam emas) bo'lishi shart.

Ma'muriy bino va inshootlar, sanitar-maishiy binolarda yong'in havfsizligi talablari?

Ma'muriy va sanitariya-maishiy binolar va xonalar xududining ko'rinarli joyida chekishni va ochiq alangadan foydalanishni taqiqlovchi ma'lumotlar, o't o'chirish vositalari joylashgan joy va yong'in paytida odamlarni evakuatsiya yo'llari va chiqish joylari ko'rsatgichlari osilgan bo'lishi, shlanganlar va aynaltirgich bilan jixozlangan o't o'chirish kranlari raqamlangan bo'lishi, jamlangan o't o'chirish qalqonlari, qavatlarida 2 tadan kam bo'lmagan o't-o'chirgichlar bo'lishi, evakuatsiya rejasi ishlab chiqilgan va osilgan bo'lishi, o't o'chirish gidrantlari soz holatda va qish mavsumida o't o'chirishga moslashtirilgan bo'lishi, 50 va undan ortiq odamlar bo'ladigan binolarda kamida 2 ta evakuatsiya chiqishlari bo'lishi, binolarga yong'in xavfsizligi bo'yicha javobgar shaxslar tayinlanishi, yong'in xavfsizligi qoidalari va yong'in holatida xatti xarakatlar qoidalari

osilgan bo'lishi zarur. Qo'lbola elektr isitgichlaridan foydalanish, tez yonuvchan moddalarni saqlash taqiqlanadi. Ma'muriy-xo'jalik binolar avtomatik yong'in signalizatsiyasi va o't-o'chirish tizimi bilan uskunalangan bo'lishi, yog'och konstruksiyalar olovdan saqlaydigan birikma bilan ishlov berilishi zarur. Imoratlar, binolar va inshootlarning yong'inga qarshi tizimlari va qurilmalari (tutunga qarshi himoya, yong'in avtomatika vositalari, yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi, yong'inga qarshi eshiklar, pardalar, klapanlar, tutun tuynuklari va boshqa yong'inga qarshi devorlar va tomlarda ximoya vositalari) doimo soz va ish holatida saqlanishi zarur. Eshiklarni o'zidan-o'zi yopish moslamalari soz holatda bo'lishi zarur. Yong'inga qarshi va tutunga qarshi eshiklarni (moslamalarni) normal holatda ochilishi va yopilishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday moslamalar o'rnatish mumkin emas. Binoning loyixasiga o'zgartirish kiritishda, ularning funktsional vazifalari o'zgarganda yoki yangi texnologik uskunalari o'rnatilganda amaldagi qurilish va texnologik loyihalari meyyorlarining yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi va qayta loyihalangunga va qayta qurilgunga qadar majburiy tartibda yong'in xavfsizligi nazorati organlari bilan kelishilishi zarur. Cherdaklar, texnik qavatlar va erto'lalar derazalari oyna bilan qoplangan bo'lishi, ularning eshiklari esa yopiq holatda saqlanishi zarur. Eshiklarda qalitlarni saqlanish joyi ko'rsatilishi zarur. Binolar va inshootlarning erto'la va tsokolli qavatlarining yorug'lik teshiklari muntazam ravishda yonuvchan chiqindilardan tozalanishi zarur. ushbu teshiklar va oynalarni zichlab yopish mumkin emas.

Elektr tokidan (elektr qurilmalari, elektr uskunalarini) yong'inni oldini olish xavfsizlik choralari?

- Shikastlangan yoki ximoya xususiyatini yo'qotgan izolyatsiyali elektr o'tkazgichlar va kabellardan foydalanish;
- Shikastlangan rozetkalar, rubilniklar va boshqa elektr buyumlarini ishlatish;
- Issiqlik ximoyasi moslamalarisiz, yong'inni paydo bo'lishini oldini oladigan yonmaydigan issiqlik izolyatsiyali materialli tagliklarsiz elektr uskunalarini (plitkalar, choynaklar, dazmollar) ishlatish;
- Nostandart elektr isitgich asboblarini ishlatish, yuqori kuchlanish va qisqa tutashuvdan himoyalovchi kalibrlanmagan eruvchan qo'shilmalar yoki boshqa qo'lbola apparatlardan foydalanish;
- Elektr shitlari, elektr dvigatellari va ishga tushiruvchi apparatlar oldida yonuvchan moddalar va materiallarni joylashtirish;
- Tranzit elektr simlari va kabellarini omborxonalar, hamda yong'in xavfi va portlash xavfi bor xududlar orqali o'tkazish;
- Shikastlangan rozetkalar, rubilniklar va boshqa elektr o'rnatish buyumlaridan foydalanish;
- Elektr lampalari va yoritgichlarni qog'oz, mato va boshqa yonuvchan materiallar bilan o'rash, hamda ulardan qalpog'i echilgan holatda foydalanish;
- Yoqilgan elektr isitgichlar, televizorlar, radio qabul qilgichlar va boshqalarni nazoratsiz qoldirish taqiqlanadi.

Omborxonalarda yong'in xavfsizligi talablari?

Omborlarda har bir ombor xonalarini xususiyatlarini hisobga olgan holda yong'inni oldini olish yo'riqnomalari ishlab chiqariladi. Ularda bajarilmasa yong'inga olib kelishi

mumkin bo'lgan maxsus qoidalar, yong'inga xavfli va portlash xavfi mavjud moddalar va materiallarni saqlash tartibi va me'yorlari ko'rsatiladi. Barcha omborxonalarda ochiq alangani ishlatish va chekish taqiqlanadi. Tarqatish shitlari va uzgich (rubilnik) lar omborxonalardan tashqariga chiqarilishi va metal qutilarda alohida turgan ustunlarda yoki yonmaydigan devorlarda o'rnatilishi kerak. Ochiq yoritgichlarni yonmaydigan materiallar saqlanadigan omborlarda, yopiq himoyalangan yoritgichlarni esa engil yonuvchan materiallar hamda alangalanishga olib keluvchi moddalar saqlashga mo'ljallangan omborlarda ishlatishga ruhsat beriladi. Taxlanadigan yuklar va materiallarni ularning hususiyatlarini (yonuvchanligini, alangalanish qobiliyatini) e'tiborga olgan holda ajratish zarur, xavfli yuklarni saqlash uchun ichki yonmas devorli sektiysialarga bo'lingan alohida omborlar ajratiladi. Barcha omborxonalar birlamchi o't-o'chirish vositalari bilan ta'minlanishi zarur.

Yuk saroyida yong'in xavfsizligi talablari?

Yuk saroylari hududi amaldagi yong'in xavfsizligi me'yorlari va qoidalariga javob berishi kerak: devor bilan o'ralishi, omborlarga, ramplar va saqlash joylariga olib boruvchi yo'llarga ega bo'lishi. Ish turlari bo'yicha texnologik jarayonning yuqori yong'in xavfi bilan bog'liq xodimlar o'qitilgan va yo'riqlangan bo'lishi kerak. Yuklarni taxlashda ularning yonuvchanlik xavfi bo'yicha xususiyatiga rioya etish va ularni har bir yuk uchun ajratilgan joyda saqlash zarur. Yuk saroylarida yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun chekish taqiqlanadi, ishlar tugagandan keyin xonalarni tozalash va ulardan yonuvchan ishlab chiqarish chiqindilarini olib chiqish, elektr tarmoqlarini, yoritgichlarni, elektr uskunalarni va isitish asboblarini va yorug'likni holatini kuchli nazorat etish, ish tugagandan keyin barcha alanga ta'sir etuvchi uskunalarni va yoritgichlarni (navbatchilardan tashqari) o'chirilishi zarur. Yuk saroylarida avtomobillar, avtoyuklagichlar, yuk ko'tarish avtokranlari, traktorlar va boshqa mexanizmlarni yonilg'i bilan to'ldirish o't-o'chiriluvchilar tashkiloti bilan kelishilgan maxsus ajratilgan joylarda amalga oshirilishi kerak.

Harakat tarkibida yong'inni oldini olish bo'yicha ogoxlantirish?

Lokomotivlarda yong'inni oldini olish lokomotiv turiga (teplovoz, elektrovoz), qo'llaniladigan tok, yonilg'i turiga, lokomotivning ishlashiga to'g'ri keluvchi mahalliy sharoitlarga (manyovr yo'llariga, o'rmon massivi, cho'l hududidagi peregonlarga), yuk vagonlarida tashiladigan yuklarni turiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Teplovozlar va elektrovozlar uglekislotali o't-o'chirgichlar bilan jihozlanadi. Vagonlarning yong'in xavfi vagonlar quriladigan materiallar turiga va tashiladigan yuklarning olovga bardoshligiga bog'liq. Kuzovning metall va yog'och qoplamalari orasi termoizolyatsiyali materiallar bilan to'ldirilishi, vagonlarni isitish uchun yoqilg'i qopqoqli maxsus qutilarda yondirish bo'limi oldida saqlanishi, muzlagan quvurlarni eritish uchun qizdirishda faqat issiq suvdan foydalanish, fanalar, yog'och bo'laklari, duradgorlik plitalari olovdan himoyalovchi vositalar bilan to'yintirilishi va ichki qoplama uchun olovga bardosh beruvchi bo'yoqlardan foydalanish zarur. Yo'lovchi vagonlarning elektr qurilmalari soz holatda bo'lishi zarur, yo'lovchi vagonlarda tez alanga oluvchi va engil yonuvchan moddalarni tashish taqiqlanadi. Yuk vagonlarida yong'in xavfsizligini ta'minlovchi etib kuzovning sozligi, eshiklar va tuynukning zich yopilishi, vagonlarga xizmat ko'rsatish va kuzatishda xavfsizlik rejimi, bitta vagonda yong'in xavfi mavjud yuklarni aralashishiga

yo'l qo'ymaslik xizmat qiladi. Vagonlarni sifatli tashishga tayyorlash bo'yicha doimiy nazorat, yuk jo'natuvchilar tomonidan vagonlarga yuk ortish va tashish qoidalariga rioya etishi muhim hisoblanadi. Vagonlarda nosozlik aniqlanganda ularni darhol bartaraf etish yoki yuklarni soz vagonlarga ko'chirishni amalga oshirish zarur.

Yonish turlari?

Amaliyotda yonish quyidagi turlarga bo'linadi: chaqnash, alanganlanish, o'z-o'zidan alanganlanish va o'z-o'zidan yonish. "Chaqnash" deb yonuvchan moddaga alanga yoki qizigan jismning ta'siridan paydo bo'luvchi bug'lar va gazlarning tez, qiska muddatda o'z-o'zidan yonishi aytiladi. "Alanganlanish" deb alanga yoki qizigan jismning ta'siridan paydo bo'luvchi bug'lar va gazlarning barqaror, birdan alanga olishi aytiladi. "O'z-o'zidan alanganlanish" deb moddaning ochiq alangasiz, tashqi qizish ta'siridan yonib ketish jarayoniga aytiladi. "O'z-o'zidan yonish" deb saqlashda paydo bo'ladigan o'zining ekzotermik reaksiyalaridan materiallarda paydo bo'ladigan ichki qizish oqibatidagi yonishga aytiladi.

Korxonada ishchi xodimining yong'in sodir bo'lganda harakati?

Yong'in yoki alanga belgilari (tutun chiqishi, yonish xidi va hokazo) aniqlanganda xodim darhol o'zining rahbari va telefon orqali 43-675 t.y. (Toshkent shaxri bo'yicha), yoki 101 (shaharniki) telefon raqami orqali o't-o'chiruvchilarga xabar berishi (ob'ekt nomi, yong'in paydo bo'lgan joy va familiyasini aytishi), ishni to'xtatishi, elektr asbob-uskunasi tarmoqdan uzishi zarur. Imkoniyat darajasida odamlar evakuatsiyasi, o't-o'chirish va moddy qimmatliklarni butligini saqlash choralari ko'rishi shart. O't-to'chirgichlar yordamida yong'inni o'chirishda kerakli xavfsizlik choralari rioya etishi zarur. O't o'chirishga kirishish faqatgina xayotiga xavf yo'qligida va o't-o'chirishning har qanday holatida xavfli hududni tashlab ketish imkoniyati bo'lganida mumkin.

Kukunli o't-o'chirgichlar, ularning hususiyati va ishlatish yo'nalishi?

Neft maxsulotlari, tez yonuvchan suyuqlik, qattiq va gazsimon yonuvchan moddalar, hamda 1000 V ostidagi elektr uskunalari yonganda o'chirish uchun mo'ljallangan. Kukunli o't-o'chirgichlar havosiz yonishi mumkin bo'lgan ishqorli materiallarni o'chirish uchun mo'ljallanmagan, (OP-1,2,3,5,8,10,50,100). Gaz bosimi manbai o'rnatilgan va bosim berilgan o't-o'chirgichlar bo'ladi. O't-o'chirgichni ishlatganda kukunni miqdorlab berish mumkin. Yonayotgan moddaga tegishi bilan kisloroddan izolyatsiyalaydi.

Uglekislotali o't-o'chirgichlar, ularning hususiyati va ishlatish yo'nalishi?

Uglekislotali o't-o'chirgichlar havosiz yonmaydigan har xil moddalar, 1000 V ostidagi elektr uskunalari yonganda o'chirish uchun mo'ljallangan. Uglekislotali o't-o'chirgichlar havosiz yonishi mumkin bo'lgan moddalarni (magniy, alyuminiy va boshqalar) o'chirish uchun mo'ljallanmagan, (OU-2,3,5,8,25). Ishlash printsipti ortiqcha bosim ostida ikki oksidli uglerodni siqib chiqarishiga asoslangan. Qulflash va ishga tushirish mexanizmi ochilishi bilan uglekislotali gaz naycha orqali rastrubga kelib, suyuqlik holatidan qattiq holatga –qor shakliga aylanadi. Temperatura -50 S dan -70 S ga qadar pasayadi. Uglekislotali moddaga tegib kisloroddan izolyatsiyalaydi. Tarkibiga kislorod kirgan metal ishqorlari, metal va birikmalar gidridlarini o'chirishga mo'ljallanmagan. Uglekislotali bilan muzlatib qo'ymaslik uchun odam ustida yonayotgan

ust-boshni o'chirish va metal rastrubga teginish mumkin emas.

Yong'in xavfsizligining asosiy talablari?

Yong'inni oldini olishning asosiy choralari barcha xodimlar tomonidan yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi, yong'in xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqilishi va ularning bajarilishini nazorati, yangi qurilishi loyihalarida yong'in xavfsizligi talablarini bajarilishi, maxsus belgilangan joylarda olovga bardosh materiallarni ishlatish, ob'ektlarni etarli miqdorda yong'in-texnik uskunalar, anjomlar va birlamchi o't-o'chirish vositalari bilan jihozlash, yong'in xavfi mavjud moddalar, materiallar, yonuvchan suyuqliklar, yong'in xavfsizligi devorlari va evakuatsiya yo'llari uskunalarini saqlanishi, kimyoviy moddalarning yong'in xavfliligi bo'yicha xossalarni bilish va boshqalar kiradi.

“Yong'in xavfi” signalini, kontakt tarmog'i yaqinida yong'inni o'chirish qoidalari aytib bering?

“Yong'in xavfi” signali bitta uzun va ikkita qisqa tovushlar orqali guruhli beriladi. Signal zarur hollarda barcha temiryo'lchi xodimi tomonidan beriladi. Kontakt tarmog'i yonida yong'in sodir bo'lganda bu haqda darhol poezdlar dispetcheriga yoki elektr ta'minot masofasi xodimlariga va o't-o'chirish tashkilotiga xabar beriladi. Kontakt tarmog'idan 2 metrga yaqin bo'lgan yonayotgan jismlarni uglekislotali, uglekislotabrometilli, aerozolli va kukunli o't-o'chirgichlar yordamida kontakt tarmog'i simlariga va yuqori kuchlanishdagi liniyalarga 2 metrga yaqinlashmagan holda o'chirishga ruxsat beriladi. Yonayotgan jismlarni suv, kimyoviy, ko'pikli yoki havo-ko'pikli o't-o'chirgichlar bilan o'chirish, faqat kontakt tarmog'idan kuchlanish o'chirilib, uning erga ulanganligidan keyin amalga oshirilsin. Kontakt tarmog'idan va yuqori kuchlanishdagi liniyadan 7 metr uzoqlikda yonayotgan jismlarni kuchlanish uzilmasdan barcha o't-o'chirgichlar yordamida, suv yoki ko'pik oqimi kontakt tarmog'iga 2 metr yaqinlashmagan holda, amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Sanoat xavfsizligi.

Yuk ko'taruvchi kranlardan xavfsiz foydalanishni tashkillashtirish bo'yicha asosiy qoida va yo'riqnomalarni sanab bering?

- yuk tashish kranlarining tuzilishi va foydalanish xavfsizligi qoidalari (PUBE) (O'zbekiston Respublikasi “Sanoatgeokontexnazorat” DI);

- kranlarning ishga texnik layoqati (soz xolati), yuk ko'tarish kranlari yordamida bajarilayotgan ishlarning xavfsizligi, shuningdek kran mashinistlari va stropalshiklari uchun ko'rsatmalar to'plami. (“Sanoatgeokontexnazorat” DI);

- qozonxonalar va yuk ko'tarish kranlari ob'ektlarining texnik nazorati va ko'rikdan o'tkazish bo'yicha qo'llanmalar to'plami (“O'zdavtemiryo'lnazorat” DI); - muhandis texnik xodimlar (MTX) va ob'ektlarga xizmat ko'rsatuvchi ishchilarning bilimini tekshirish bo'yicha qo'llanma (“O'zdavtemiryo'lnazorat” DI).

Sanoat xavfsizligi nima degani?

Sanoat xavfsizligi – bu shaxslar va jamiyatning xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida avariya va nohush hodisalardan va ularning oqibatlaridan himoyalanganligi holati.

Qaysi turdagi yuk ko'taruvchi mashinalarda tuzilishi va xavfsiz foydalanish qoidalari (PUBE) qo'llanilmaydi?

- barcha qo'l orqali ishlatiladigan moslamalarga.
- greyf yoki er qazish qurilmalari bilan ishlovchi ekskavatorlarga.
- shaxta, daryo, dengizlardagi bandargoxlarida o'rnatilgan yuk ko'tarish mashinalariga (ular uchun aloxida Qoidalar mavjud)
- truba yotqizuvchi va avto yuk ortuvchi mashinalar, shtabelerlarga. - xarbiylarning maxsus mashinalari.

Yangi tayyorlangan kran qanday texnik hujjatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak?

- texnik pasport.
- texnik ta'rifi.
- yig'ish bo'yicha yo'riqnoma.
- ishlatish bo'yicha yo'riqnoma.

Yuk ko'tarish kranlari ilgagiga TXFQ (PUBE) talablari?

- maxsus korxonalarda tayyorlanadi.
- texnik pasportga ega bo'ladi, o'z o'zidan stroplarning tushib ketishiga yo'l qo'ymaydigan moslamalarga ega bo'ladi.
- uch tonnadan ortiq yuk ko'tarishga moslashgan ilgaklar bimalol aylanib turishi shart.

“Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash tartibi to'g'risida” Nizomda nimalar ko'rsatib o'tilgan?

Ushbu Nizom «Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligini ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash tartibi, printsiplari va shartlarini belgilaydi.

Greyferga qoidalar talabi?

- greyferda tayyorlovchi zavod tomonidan o'rnatilgan maxsus tablichkalarda uning raqami, xajmi, o'z og'irligi va cho'michda ko'tarishi mumkin bo'lgan og'irliklar ko'rsatilgan bo'lishi shart.
- greyfer konstruksiyasi tuzilishida cho'michning o'z – o'zidan ochilib ketishiga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek kanatlar bloklar ariqchalaridan chiqib ketmasligi kerak.
- yukni bir joydan ikkinchi joyga olganda greyferning yuk ko'tarish qobiliyati shu yukni sinov yo'li bilan tortib ko'rib aniqlanadi .

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash va xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining identifikatsiya varag'i nima degani?

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini idetifikatsiyalash – xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari sifatida e'tirof etish maqsadida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari belgilari jamini aniqlash (belgilash) va keyinchalik Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari davlat reestrda hisobga olish, shuningdek boshqa shaxslarning

hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish tartib-qoidasi. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining identifikatsiya varaqasi – xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari, shuningdek ulardan foydalanayotgan tashkilotlarning belgilari, tipi va rekvizitlari jamini aks ettiradigan hujjat.

Temir yo'l transportida xavfli yuklarni tashishda xavfsizlik talablari?

Xavfli yuklarga tashish yoki saqlash davomida portlash, kasallanish, zaharlanish yoki kuyishga hamda boshqa yuklar, harakat vositasi, inshootlar va qurilmalarni shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yuklar kiradi. Xavfli yuklar yuk poezdlarida tashiladi. Yo'lovchi poezdlarning bagaj vagonlarida siqilgan yonmaydigan va zaharli bo'lmagan gazlar (kislorod, siqilgan havo, ugлекislota va boshqalar) bilan to'ldirilgan sig'imlar (balonlar) ni chegaralangan miqdorda tashishga ruhsat beriladi. Kinotasma va kinofilmlarni hamda tez yonuvchan suyuqliklarning na'munalarini yo'lovchi poezdlarda, ammo maxsus upakovkada tashish mumkin. Siqilgan va suyultirilgan gazlar kontexnazorat talablariga javob beruvchi va tegishli yukning nomi ko'rsatilgan po'lat balonlarda tashiladi. O'z-o'zidan yonuvchi moddalar (ruxli chang, alyumin, upa, magniy kukuni), ishqorli metallar (kaliy, natriy, kaltsiy) mahkam yopiq metal bankalarda tashiladi, chunki ular oksidlanish va o'z-o'zidan alanganish darajasigacha olib keluvchi issiqlikni ajratishi mumkin, natriy va kaliy esa suvni har qanday temperaturada bemalol parchalab, havo bilan aralashmasi portlovchi aralashma xosil qiluvchi vodorodni ajratishi mumkin. Xavfli va engil yonuvchan yuklarni tashishda yuk yuboruvchidan yukni qabul qilish vaqtida yukni upakovkasiga, yukning xavfliligi to'g'risida belgilangan belgi va yorliqlariga, alohida e'tibor bilan vagonlar va konteynerlarni tanlashga, xujjatlarni to'g'ri to'ldirilishi (yukning xavfliligi va engil yonuvchanligi to'g'risida shtamplar, panalash (prikratie) me'yorlari, tepalikdan tushirish tartibi) ga, vagonning tozalash va yuvilish sifatiga va boshqalarga alohida e'tibor beriladi.

Yuk ko'tarish kranlarini yig'ish va ta'mirlash ishlarini olib borish tartibi?

Yuk ko'tarish kranlarini yig'ish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari "Sanoatgeokontexnazorat" DI litsenziyasiga ega bo'lgan maxsus korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan loyixalar asosida bajariladi.

Kim va qanaqa tashkilot OPO (xavfli ishlab chiqarish ob'ekti) bo'yicha identifikatsiyalashni amalga oshirish huquqiga ega?

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash sanoat xavfsizligi ekspertizasi doirasida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanayotgan tashkilot yoki ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish maqsadida xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash faqat ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini identifikatsiyalash to'g'riligi uchun javobgarlik identifikatsiyalashni amalga oshiradigan tashkilotga yuklanadi.

Yuk ko'tarish mashinalaridagi kanatlarni mahkamlash turlari?

- kanatga kovush o'rnatilgan holda uni to'qish yo'li bilan.

- uchtdan kam bo'lmagan qisqichlarni o'rnatish bilan.
- quyma, shtamplangan vtulkalarning ichiga ponalab o'rnatish yo'li bilan.
- tez eriydigan qorishmalar quyish yo'li bilan.

Payvandlash yo'li bilan tayyorlangan vtulkalarni ishlatish mumkin emas.

Kanatlarni to'qish usuli bilan mahkamlash paytida kanatlarni yo'g'on tolalarini eng kam teshib o'tkazish soni?

Bu asosan kanat diametriga bog'liq bo'lib quyidagicha:

- $D=15$ mm – 4 marta
- $D=15$ mm dan 28 mm gacha – 5 marta
- $D= 28$ mm dan 60 mm gacha
- 6 marta va xokozo.

Har bir o'rinning oxirgi teshigi simlarning yarim soni bilan bajariladi. Yuk ko'tarish mashinalari qanday tormozlar bilan jihozlanadi?

Kranlarning yuk ko'tarish va strelani holatini o'zgartirish mexanizmlari kran harakatlanmagan holda doim siqilgan holatda bo'ladigan va harakat boshlanganda avtomatik tarzda ochiladigan tormozlar bilan jihozlangan bo'lishi shart. Bunda yuzaga keladigan tormozlash kuchi zaxirasi koefitsienti 1,5 dan kam bo'lmasligi kerak.

Yuk ko'tarish mashinalari mexanizmlarini avtomatik to'xtatishini ta'minlovchi qurilma va uskunalar?

- Kryuklarning oxirgi ko'tarilgan xolatiga, yukni ilingan xolatida 200 – 300 mm qolganda to'xtatilishi;
- Strelalik kranlarda strelani oxirgi ko'tarilish holatini chegaralovchi qurilma.
- Yuk ko'tarish kranlari va ularning telejkalarini relslarda oxirgi holatlarga etmasdan, 1.5 tormoz yo'li masofasida avtomatik tarzda to'xtatish uchun.
- Bir yo'lda harakatlanayotgan ko'priqli, chorpoyalik kranlarni bir – biriga urilib ketmasligini ta'minlovchi qurilma.

Ko'priqli va kozlovoy kranlarga xizmat ko'rsatuvchi personalni xavfsizligini ta'minlovchi himoya vositalari?

- Ko'priqli kranlarda uni galereyasiga chiquvchi lyuklarni qopqoqlari ochilgan xolda kranni elektr kuchlanishdan uzib qo'yyadigan qurilma (elektr blokirovkalar).
- Kran kabinasiga kirish eshigiga o'rnatilgan elektr blokirovka eshik ochilgan paytida kranni avtomatik ravishda elektr kuchlanishdan uzib qo'yadi.

Strelali kranlar (bashnyali, avtomobil, temir yo'l va pnevmog'ildirakli kranlar) da xavfsizlik qurilmalari?

- OGP (yuk ko'tarishni chegaralovchi) – kran belgilngandan ko'p og'irlikdagi yukni ko'targan vaqtda uni ag'darilib ketishni oldini olish maqsadida o'rnatilgan qurilma.
- Strelalik harakatlanuvchi kranlarni ish joyida o'rnatilganda ularni og'ish burchagini ko'rsatuvchi jixozlar (og'ish burchagi 3 gradusdan oshmasligi shart).
- Kran strelasining belgilangan chiqish (vlete) masofasida ko'tarish mumkin bo'lgan miqdoridagi yukni ko'rsatuvchi jixoz.

Yuk ko'tarish kranlarining ishi qay holatlarda to'xtatiladi?

Arqon (tros) qisilib qolganida, yuk ilish vositalari shikaslanganda, baxtsiz hodisalar bo'lganda, elektr uskunalari nosozligida va boshqa holatlarda.

Yuk ko'tarish kranlarining boshqarish kabinalari o'rnatilishiga yuk ko'tarish kranlari TXFQ (PUBE) ning talablari?

- Ko'prik tipidagi kranlar kabinasi, trolleylar osilgan tomonning qarama – qarshisiga o'rnatilgan bo'lishi shart.
- Kabinaning poli metallidan bo'lmasligi, dielektrik rezinali gilamchalar solingan bo'lishi kerak.
- Kabinani atrofi balandligi bir metrdan past bo'lmagan to'siqlar bilan to'silgan bo'lishi kerak.

Ko'prik tipidagi kranlarni sanoat binolarida o'rnatishga, shuningdek qurilish – montaj ishlari uchun o'rnatiladigan kranlarni o'rnatishga bo'lgan talablar?

- Sxalarda ko'prik kranlari loixalariga asosan o'rnatiladi, minora va mobil kranlari qurilish – montaj ishlarini bajarishi uchun “Kranlar bilan ishlash ishlab chiqarish loyixasi” asosida bajariladi.

TXFQ (PUBE) ning relsli kran osti yo'llarini tuzilishiga bo'lgan talablari?

- Yuk ko'tarish mashinasining relsli kran osti yo'llari qurilmalari quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan maxsus tashkilotlar ishlab chiqqan loyixasiga asosan bajariladi:
 - Rels turlari, shpallarning uzunligi va kesimi, ular o'rtasidagi oraliq masofalar.
 - Relslarni o'zaro va shpallarga mahkamlash uslublari.
 - Relslar orasidagi zazor.
 - Yo'l oxirlaridagi to'xtatish to'siqlar konstruktsiyasi.
 - Rels yo'lining erga ulash qurilmalari.

Sanoat xavfsizligi ekspertizasi bu nima?

Sanoat xavfsizligi ekspertizasi – ekspertiza ob'ektining unga qo'yiladigan sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash.

Qanday ko'tarma mexanizmlar nazorat organlari tomonidan ro'yxatga olinadi?

- Boshqarish kabinalariga ega bo'lgan barcha yuk ko'tarish kranlari.
- Ko'prik tipidagi yuk ko'tarish qobilyati 10 tonnadan ortiq bo'lgan, poldan boshqariluvchi kranlar.
 - Kryuk va elektromagnit bilan ishlashga moslashtirilgan ekskavatorlar.
 - Yuqoridagi rels yo'llarida harakatlanuvchi boshqaruv kabinalariga ega bo'lgan elektr yuk telejkalari.

Yuk ko'tarish kranlarida qanday yozuvlar va ma'lumotlar taxtachasi (tunukasi) o'rnatilishi kerak?

Yuk ko'tarish kranlarining ko'rinarli joylarida ishlab chiqargan korxon nomi yoki uning mahsulot belgisi, ishlab chiqarilgan sanasi, yuk ko'tarish qobiliyati, tartib raqami, xavfsiz foydalanishga javobgar ustaning familiyasi, keyingi tekshiruv sanasi va normativ-texnik xujjatlarga asosan boshqa ma'lumotlar yozilgan taxtacha (tunuka) osilgan bo'lishi

kerak.

Me'yorda belgilangan foydalanish muddati o'tib ketgan yuk ko'tarish mashinalarini ro'yxatga olish tartibi?

- Me'yorda belgilangan foydalanish muddati o'tgan yuk ko'tarish mashinalari maxsus tashkilotlar tomonidan maxsus ko'rikdan o'tkazilib, uni ishlatish muddati cho'zilganligi, uni ishlatish xavfsizligini ta'minlanganligi haqidagi xulosa asosida ro'yxatga olinadi. Xulosada keyingi maxsus ko'rikdan o'tkazish muddati aniq ko'rsatiladi.

Yuk ko'tarish kranlarini to'liq texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi va uning o'tkazilish muddati?

Foydalanishda bo'lgan yuk ko'tarish kranlari quyidagi muddatda davriy va texnik ko'rikdan o'tkazilishi kerak:

- Qisman – bir yilda bir marta.
- To'la ko'rikdan – har 3 yilda bir marta, kamdan-kam hollarda ishlatiladigan mashinalardan tashqari. Kamdan-kam hollarda ishlatiladigan yuk ko'tarish mashinalari to'liq texnik tekshiruvdan 5 yilda bir marotaba o'tkazilishi kerak.

Mehnat muhofazasi, texnika va sanoat xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i v.b.

R.R.Asomxujayev

Tuzdi: Mehnat muhofazasi, texnika va sanoat xavfsizligi boshqarmasining mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'limi boshlig'i

B.A.Raximjonov